



**GEOGRAFIYA DARSLARIDA MOBIL ILOVALAR YORDAMIDA
O‘QITISH METODIKASI**

Rajabova Dilshoda Otabek qizi

magistr

Buxoro davlat pedagogika instituti. Buxoro. O‘zbekiston Respublikasi.

Annotatsiya Mazkur maqolada geografiya ta’limida mobil ilovalardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari, ularning didaktik imkoniyatlari hamda o‘quv jarayonidagi samaradorligi kompleks tarzda tahlil etilgan. Tadqiqotda an’anaviy o‘qitish metodlarining cheklangan jihatlari ochib berilib, zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan interaktiv ta’lim muhitining ustunliklari ilmiy jihatdan asoslangan. Xususan, geografiya fanining vizual-amaliy xususiyatidan kelib chiqib, mobil ilovalar (Google Earth, ArcGIS, Kahoot va boshqalar) orqali o‘quvchilarda fazoviy tafakkur, tahliliy fikrlash va mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar geografiya ta’limi, mobil ilovalar, interaktiv ta’lim, raqamli texnologiyalar, GIS, innovatsion metodlar, didaktika.

Methodology of Teaching Geography Using Mobile Applications

Rajabova Dilshoda Otabek qizi

Master’s student

Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara, Republic of Uzbekistan

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations of using mobile applications in geography education, their didactic potential, and their effectiveness in the educational process. The study highlights the limitations of traditional teaching methods and scientifically substantiates the advantages of an interactive learning environment based on modern digital technologies. Considering the visual and practical nature of geography, the paper demonstrates the potential of mobile applications (such as



Google Earth, ArcGIS, Kahoot, etc.) in developing students' spatial thinking, analytical skills, and independent learning abilities.

Keywords: geography education, mobile applications, interactive learning, digital technologies, GIS, innovative methods, didactics

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ГЕОГРАФИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МОБИЛЬНЫХ ПРИЛОЖЕНИЙ

Раджабова Дилшода Отабек кызы

Магистрант

Аннотация: В данной статье комплексно проанализированы теоретико-методические основы использования мобильных приложений в преподавании географии, их дидактические возможности и эффективность в образовательном процессе. В исследовании раскрыты ограничения традиционных методов обучения и научно обоснованы преимущества интерактивной образовательной среды, основанной на современных цифровых технологиях. С учетом визуально-практической специфики географии показаны возможности развития пространственного мышления, аналитических навыков и умений самостоятельного обучения учащихся с использованием мобильных приложений (Google Earth, ArcGIS, Kahoot и др.).

Ключевые слова: географическое образование, мобильные приложения, интерактивное обучение, цифровые технологии, ГИС, инновационные методы, дидактика

Kirish

Hozirgi globalashuv va raqamlashtirish jarayonlari ta'lim tizimiga ham tub o'zgarishlar kiritishni talab etmoqda. An'anaviy ta'lim shakllari — ma'ruza, darslik asosida o'qitish va oddiy amaliy mashg'ulotlar — ko'pincha o'quvchini passiv tinglovchiga aylantiradi. Natijada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish va amaliy ko'nikmalar yetarli darajada shakllanmaydi.

Geografiya fani esa tabiat, jamiyat va iqtisodiy jarayonlarni o'rganishga qaratilgan. Bu fan vizual va amaliy yondashuvni talab etadi. Shu sababli ushbu fan



an'anaviy metodlardan ko'ra zamonaviy, interaktiv va raqamli vositalarga asoslangan holda o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy ta'limda mobil ilovalar va raqamli platformalar muhim o'rin tutadi. Quyidagi O'zbekistonda foydalaniladigan mashhur elektron ta'lim platformalari va mobil ilovalar:

–Google Earth: Uch o'lchamli (3D) globus asosida ishlovchi interaktiv dastur bo'lib, Yer yuzasining sun'iy yo'ldosh tasvirlari orqali geografik obyektlarni real ko'rinishda o'rganish imkonini beradi. Yer yuzasining sun'iy yo'ldosh tasvirlari orqali geografik obyektlarni real ko'rinishda o'rganish imkonini beradi. Abstrakt bilimlarni aniq tasavvurga aylantiradi. Fazoviy tafakkurni rivojlantiradi.

–Google Maps; Interaktiv xaritalar va navigatiya ilovasi bo'lib, masofa aniqlash, yo'nalishlar tuzish va real geografik obyektlarni o'rganish imkonini beradi. Transport va urbanizatsiya mavzularida ishlatiladi

–ArcGIS: Geografik axborot tizimlari (GIS) asosida ishlovchi professional platforma bo'lib, xaritalar yaratish va tahlil qilish imkonini beradi.

–Windy: Ob-havo va iqlim jarayonlarini real vaqt rejimida ko'rsatuvchi interaktiv meteorologik ilova. Iqlim va atmosfera mavzularida ishlatiladi. O'quvchilar shamol, yog'ingarchilik va haroratni kuzatadi.

–Kahoot: Onlayn viktorina va test yaratish platformasi bo'lib, o'quvchilarning bilimini interaktiv baholash imkonini beradi.

–Quizizz: Test va viktorinalarni mustaqil yoki guruhda ishlash uchun mo'ljallangan interaktiv platforma. Individual bilim nazorati amalga oshiriladi. Natijalar avtomatik tahlil qilinadi

– Google Classroom: Bu Google tomonidan taqdim etilgan platforma bo'lib, o'quvchilarni guruhga bo'lish, vazifalarni yuklash, elektron qo'llanmalarni almashish va elektron testlar tuzish imkoniyat yaratadi. Bu, o'qitish va o'rganishni boshqarish uchun oson va moslashtirilgan platforma hisoblanadi.

Mobil ilovalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularni axborot bilan ishlashga o'rgatadi va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantiradi.



Dunyoning rivojlangan davlatlarida jumladan Singapur, AQSH geografiya ta'limi allaqachon zamonaviy yondashuvlarga o'tgan. Darslar ko'pincha loyiha va tadqiqot shaklida olib boriladi. O'quvchilar mustaqil ravishda xaritalar yaratadi va hududiy tahlillar o'tkazadi.

Geografiya darslarida raqamli texnologiyalar, ayniqsa GIS tizimlari va mobil ilovalar faol qo'llaniladi. O'quvchilar real geografik ma'lumotlar bilan ishlaydi, tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi. Ta'lim jarayoni muammoli vaziyatlar asosida tashkil etiladi.

Tadqiqot natijasiga ko'ra, innovatsion yondashuvlar:

Darsni interaktiv va zamonaviy qiladi;

O'quvchilarning faolligini oshiradi;

Vizual va amaliy o'rganishni ta'minlaydi;

Raqamli kompetensiyalarni shakllantiradi;

Xulosa

Geografiya darslarida mobil ilovalardan foydalanish ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mobil texnologiyalar yordamida o'quvchilar real geografik jarayonlarni kuzatish, xaritalar bilan ishlash va interaktiv topshiriqlarni bajarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ular yordamida darslar yanada interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etiladi. Natijada o'quvchilarning bilim darajasi oshadi, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalari rivojlanadi. Shu bois, mobil texnologiyalarni geografiya ta'limiga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo'rayev R.X. Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Raqamli ta'limni rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent, 2020.
3. Saidova M., Qodirov A. [Geografiya o'qitish metodikasi](#). — Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. Google Earth Official Website. – URL: <https://earth.google.com>
5. Google Maps Platform Documentation. – URL: <https://maps.google.com>